



Iqtisodiy rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim tizimi

Sobirova Marjona Shavkat qizi

Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Telefon raqami: +998975567071

Zaripova Xolida Baxtiyor qizi

Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti

Boshlang'ich ta'lim 2-kurs talabasi

Telefon raqam: +998888581128

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar AQSH, Yaponiya va Fransiya ta'lim tizimi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: AQSH, Yaponiya, Fransiya, ta'lim, tizim, boshlang'ich, sinf, maktab, qonun.

Jahonning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarida ta'lim-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishi, maktablarda amalga oshirilganini o'rganish orqali biz mustaqil respublikamiz milliy ta'lim tizimlarini yangitdan tashkil qilishda, ta'lim-tarbiyada, maktab ishini tashkil etishda eskirib, o'z dolzarbligini yuqotib borayotgan faoliyat shakllari va usullaridan tezroq halos bo'lish, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ham ega bo'lamiz. Zotan, hozirgi zamon ta'limida davlat va jamiyat talabi hamda manfaatlari aks etib turishi kerak.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyutsiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat azolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga



yo'naltirish hamda o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim-tarbiya berishda eng ilg'or pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning eng maqbul tizimlarini yaratish kabi jahon tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda keng ko'lamdagi isloxotlarni uz boshidan kechirayotgan bizning ta'limimiz uchun bu katta ahamiyatga ega. Keyingi yillarda jahon ta'limi bo'yicha ko'pgina maqolalar, broshyuralar, qo'llanmalar chop etildi, unga bag'ishlab seminarlar, anjumanlar, o'qishlar, uchrashuvlar o'tkazildi. Bu bizning ta'lim tizimimizda, chet ellarda o'quv-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishiga e'tibor va qiziqishning tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligidan dalolatdir. Xalq ta'limi tizimlarida jahon ta'lim tizimini o'rganish bilan shug'illanuvchi muassasalar xam tashkil topmoqda. Jahon ta'limi tizimlaridan bizning mutaxassislarni voqif qilishda BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi, elchixonalar, AQSHning Tinchlik Korpusi mutaxassislari, Germaniya xalqaro rivojlanish fondi, AKSELS markazi, Adenauer jamg'armasi, Fransiya madaniyat markazi, Britaniya Kengashi, Gyote instituti, YUNESKO va YUNISEFning vakolatxonalari va boshqa ko'plab tashkilotlar yaqindan yordam bermoqdalar. Darhaqiqat, rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning, mamlakat ichki siyosatiga faol tasir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarida maktab ehtiyojini iqtisodiy taminlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan-yilga oshib bormoqda.

Amerika Qo'shma Shtatlarida bolalar 6 yoshdan 17 yoshgacha 12 yil o'qiydilar. Ta'lim tizimi quyidagicha tashkil etilgan: 3 yoshdan 5 yoshgacha maktabgacha tarbiya muassasalarida. Boshlang'ich maktab. Bu bosqich 1-5-sinflarni o'z ichiga oladi. To'liq bo'lmagan o'rta maktab. Bu bosqich 6-8-sinflardan iborat. Yuqori maktab. Bu bosqich 9-11-sinflar bo'ladi. Amerika Qo'shma Shtatlarida navbatdagi ta'lim bosqichi oliy ta'lim bo'lib, u 2 yoki 4 yil o'qitiladigan kollejlarda hamda dorilfununlardir. AQShda majburiy ta'lim



16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagi o'quv yurtlari davlat, jamoa tasarrufida, xususi va diniy muassasalar ixtiyorida bo'lishi mumkin.

Amerikada 3 yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasi bilan onalar shug'ullanadilar, lekin ularga hech qanday imtiyozlar berilmagan. 5 yoshdan esa "Kinder garde" deb ataluvchi tayyorlov muassasalarida ta'lim boshlanadi. Boshlang'ich maktab 6 yoshdan to 13-15 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Bu boshlang'ich maktablarda umumiy savodxonlik va kasbga yo'naltirish vazifalari hal etiladi. Sinf dan-sinf ga ko'chish ta'lim oluvchining o'zlashtirganlik darajasiga bog'liq. Boshlang'ich ta'lim turli shtatlarda turlicha belgilangan (4, 5, 6, 8 yil). Maktablarda turli hil to'garaklar, uchrashuvlar, shoular va sayohatlar uyushtiriladi, ammo ularning hammasiga haq to'lash lozim. O'rta maktablar quyi va yuqori bosqichlardan iborat.

Sinfni bitirgan talabalar tanlov asosida o'rta maktabga qabul qilinadi. O'rta maktablarda quyidagi to'rt yo'nalishda kasb-hunar asoslari berib boriladi:

Kasb-hunar ta'limi;

Biznes ta'limi;

Savdo va sanoat ta'limi;

-qurilish ta'limi.

Oliy ta'lim esa quyidagi 4 asosiy bosqichda amalga oshiriladi:

Kichik mutaxassis 2 yillik kollejlar.

Bakalavr 4 yillik kollejlar.

4 yillik kollej yoki dorilfununni tugatgandan so'ng, 1-2 yillik magistr maktabi.

5.Doktorantura.

Oliy ta'limda ikki yo'nalish mavjud:

Ta'limni individuallashtirish

Talabaning mustaqil ishlashini amalga oshirish.



Pedagog yo'naltiruvchi rol o'ynaydi. Asosiy maqsad talaba intellektini mashq qildirish va mantiqiy fikrlashga o'rgatishdir.

Yaponiyada ta'lim tizimi Majburiy ta'lim. Ta'limning pog'onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. 6 yillik boshlang'ich ta'lim va 3 yillik kichik o'rta maktab, 9 yillik majburiy ta'limni tashkil etadi va u bepuldir, tekin darsliklar bilan ta'minlangan. Muxtoj oilalarning bolalari bepul nonushta, o'quv qurollari, tibbiy xizmat bilan ta'minlanadi. Zarur bo'lgan taqdirda ularning oilalariga moddiy yordam ko'rsatiladi. SHu qatorda xususiy maktablar ham mavjud. Yuqori bosqich o'rta maktab 10, 11, 12 sinflarni o'z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi va kechki bo'limlari mavjud. O'quvchilarning 95% kunduzgi maktablarda o'qiydilar. Yaponiyada o'quv yili 240 kun (AQSH 180). O'quv yili 1 apreldan boshlanib martda tugaydi. Yozgi kanikul iyun oyining oxirida boshlanib, avgustda tugaydi. Darslar 7 soatdan o'tiladi.

Dorilfununlarga katta o'rta maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni tugatgan o'quvchilar qabul qilinadi. U yerda 460 ta universitet bo'lib, 95 tasi davlat tasarrufida, 34 tasi munitsipal, 331 tasi xususiy, 1-toifadagi universitetlarda har bir o'qituvchiga 8 nafar, 2-toifali universitetlarda esa 20 tadan talaba to'g'ri keladi. Universitetlarga qabul qilish ikki bosqichga bo'linadi: 1-bosqichi turar joyda o'tkaziladi: buning uchun yapon, eski yapon tili, matematika, fizika, ximiya, jamiyatshunoslik, tarix bo'yicha test sinovlaridan o'tadilar. Bu sinovlardan o'tgan o'quvchilar universitetlarga yo'llanma oladilar va yana sinovdan o'tadilar. Xususiy universitetlarga esa to'g'ridan-to'g'ri test topshiriladi. Bir qator xususiy universitetlar o'zining uzluksiz shaxobchasiga esa (bog'chadan boshlab hamma bosqichlarni qamrab oladi). Universitetdan talabalarni haydab yuborish mumkin emas. Lekin o'qish muddatini cho'zish mumkin (4 yillik o'qish 5-6 yilgacha cho'zilib ketishi mumkin). KOLLEJLAR: 1-kichik kollej;2-texnik kollej 3-maxsus kollejlarga bo'linadi. Uni bitirgan talabalar bakalavr diplomini oladi va universitetning 3 yoki 4 kurslariga qabul qilinadi. Janubiy Koreyada ta'lim tizimi Mamlakatda oliy o'quv yurtlarining ishlari yaxshi



yo'lga qo'yilgan. Koreyada 104 ta oliy o'quv yurti bor, ularning 80 foizi xususiydir. Hozir mamlakatda oliy o'quv yurtlarida o'qishga qiziqish juda kuchayib ketgan. Har yili maktablarni bitiruvchilarning 40 foizi o'qishga kiradi. Talabalar soni bo'yicha Koreya dunyoda birinchi o'rinda turadi. Lekin maktabgacha ta'lim muassasalari ishida muammolar bor. Talab ehtiyojni qondira olmayapti. SHuning uchun 1982 yilda maktabgacha tarbiya haqida qonun qabul qilindi. Bu yerda tarbiyaga bolalar bog'chasida asos solinishini yaxshi tushunishadi. SHu tufayli bu tarmoq keyingi yillarda 60 foizga kengaydi. Bunda diniy tashkilotlarning hisssasi kattadir. Boshlang'ich maktab masalasiga kelganda (bu maktabga olti yoshlilar kelishadi) sinflarning tig'izligini kuzatish mumkin. Har sinfda 50 nafargacha bola o'qiydi. Dars nagruzkalari ham ko'proq. Lekin o'yinlar dam olish o'quv dasturiga kiritilgan. SHuning uchun dam olishga imkoniyat bor. Boshlang'ich maktabda dars 40 minut davom etadi. O'rta maktabda esa darslar 45 minut. Oliy maktabda darsning davomiyligi 50 minutga teng. Bu yerda ikki muhim jihatga to'xtalib o'tish zarur. Oliy maktabga, albatta, kirish imtihonlari topshirib kiriladi, o'qishlar pullik. Boshlang'ich maktabda 9 ta fan o'qitiladi. Koreys tilini o'rganishga alohida e'tibor beriladi. Bundan tashqari arifmetika, ayrim ijtimoiy fanlar ham o'qitiladi. O'rta maktabda fanlar yana 4 taga ko'paytirilgan. 7- sinfdan boshlab chet tillar o'rgatiladi. Mamlakatda ingliz tiliga e'tibor kuchli. Ko'pchilik bu tilda bimalol gaplasha oladi. CHet tillarni o'qitishga haftasiga 4-5 soat ajratilgan. Koreyslar yana bir tilni - klassik xitoy tilini majburiy ravishda o'rganadilar. 8-sinfdan boshlab Xitoy tarixi o'rganiladi. Hunar maktablari Koreyada 600 tani tashkil etadi. Bu maktablarning 45 foizi bo'lajak mulkdorlarni tayyorlaydi, 23 foizida texnik kasb egalari yetishib chiqadi. Koreyada ham alohida iqtidorli bolalarga e'tibor kuchli. So'nggi yillarda 5 ta sport, 6 ta ilmiy maktab ochilgan. Jismoniy tarbiyaning rivojlanishiga Seul olimpiadasi katta ta'sir ko'rsatgan.

Fransiyada ta'lim tizimi Frantsiya ta'lim tizimi ham qadimiy va boy tarixga ega. Bu mamlakatda "Ta'lim haqida"gi Qonun dastlab 1955-yilda qabul qilinib, 1975-yilda unga



qator o'zgartirishlar kiritilgan. Frantsiya davlatining hozirgi davrda amal qilinayotgan "Ta'lim haqida"gi Qonuni 1989-yil 10-iyulda qabul qilingan bo'lib, uning o'zgartirilishiga ta'lim strategiyasida ro'y bergan o'zgarishlar, mamlakatning ichki, tashqi siyosatdagi islohatlar, yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar, chet el pedagogikasidagi ilg'or tajribalarning mamlakat ta'lim tizimlariga kirib kelishi, o'quv predmetlarining integratsiyalari va boshqalar sabab bo'ldi.

Fransiyada ta'limning asosiy maqsadi shaxsning har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir.

Bu yerda:

- Davlat maktablari;
- Xususiy maktablar;
- Oraliq maktablari mavjud.

Fransiya ta'limida bolalarning go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masala hisoblanadi. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan: kichik guruh (2-4 yosh), o'rta guruh (4-5 yosh), katta guruh (5-6 yosh). Maktabga tayyorlov guruhi (5-6 yosh) bo'lib, ularga Frantsiyada 100% shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud. Fransiyada boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang'ich maktab bepul va majburiy. Uning vazifasi o'qish, yozish, hisoblash malakasini berishdir. O'quv mashg'ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha, hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Maktabda ovqatlanish pullik, lekin juda arzonlashtirilgan narxlarda.

Boshlang'ich sinflarda o'qish uch bosqichda amalga oshiriladi:

- Tayyorlov bosqichi;



- Elementar kurs (bu bosqich ikki yil davom etadi);
- Chuqurlashtirilgan bosqich.

Dasturlarda o'quv predmetlarning barchasiga uch bosqich bo'yicha aniq, alohida-alohida talablar qo'yiladi. 1990-yildagi hukumat qarorida bolalarni bilimiga, qobiliyatiga qarab dars jadvalini tabaqalashtirgan holda tuzish huquqi berildi. Oliy ta'lim universitetlarda uch turkumda amalga oshiriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Amerika Qo'shma Shtatlarida va Yaponiyada maktab ta'lim tizimi 12 yillik. Amerikada 3 yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasi bilan onalar shug'ullanadilar, lekin ularga hech qanday imtiyozlar berilmagan. Boshlang'ich maktab 6 yoshdan to 13- 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Boshlang'ich ta'lim turli shtatlarda turlicha belgilangan (4, 5, 6, 8 yil). Fransiyada esa Boshlang'ich ta'lim 3 ta bosqichda amalga oshirilishini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. B. X. Xodjayev Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti, Toshkent-2017.
2. 7. I.J. Xasanboyev va boshqalar, Pedagogika nazariyasi va tarixi, Toshkent - 2021
3. Davrenov, J., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA XVI-XVIII ASRLARDA YAPONIYA DAVLATI TARIXINI AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).
4. Ismoilova Z.K. Pedagogika. Toshkent, MOLTUA, 2008
5. X.Ibragimov SH.Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi (darslik) T «Fan va texnologiya» 2008
6. Hoshimov K. Va boshqalar. Pedagogika tarixi. — T., o'qituvchi, 1996.
7. <https://telegra.ph/ILMIY-MAQOLA-10-15>
8. <http://daf-uz.simplesite.com/439284582>
9. <https://static.tuit.uz/uploads/1/ryoi2SgsqsZpZAchXCkBt8WSUoYuotYz>.
10. <https://hozir.org/ta'lim-metodlari.html>